

HARBIY-KASBIY SARALASHDA NOMZODLAR ASAB-RUHIY BARQARORLIGINI TASHXISLASHNING NAZARIY HAMDA AMALIY TAHLILI

Usarov Shuxrat Baxrullayevich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta leytenant
"Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlashning qo'mondonlik-shtab
faoliyati" yo'nalishi magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada harbiy-kasbiy saralash jarayonida nomzodlarning asab-ruhiy barqarorligini psixofiziologik tashxislashning nazariy hamda amaliy tahlili haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Asab-ruhiy barqarorlik, stress, depressiya, shaxs tipi, psixologik test, so'rovnama, nomzod, kasbiy faoliyat, harbiy kasb talablari, moslashish.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПСИХИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ КАНДИДАТОВ ПРИ ВОЕННО- ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОТБОРЕ

Аннотация: В статье проводится теоретический и практический анализ психофизиологической идентификации психической устойчивости кандидатов в процессе военно-профессионального отбора.

Ключевые слова: Психическая устойчивость, стресс, депрессия, тип личности, психологический тест, анкета, кандидат, профессиональная деятельность, требования военной профессии, адаптация.

THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS OF THE DETERMINATION OF MENTAL STABILITY OF CANDIDATES IN THE MILITARY-PROFESSIONAL SELECTION

Abstract: This article deals with the theoretical and practical analysis of psychophysiological identification of candidates' mental stability during the military-professional selection process.

Key words: Mental stability, stress, depression, personality type, psychological test, questionnaire, candidate, professional activity, military profession requirements, adaptation.

Bugungi kunda butun dunyo sog'liqni saqlash tashkilotlari dunyo mamlakatlari aholisining atiga 10 foizi stressga chidamli deb ma'lumot bermoqdalar. Globallashuv

va axborot oqimi kuchaygan bugungi bir davrda statistik ma'lumotlarga tayangan holda yer shari aholisining 25 foizi kundalalik hayotda ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga duch kelishi ehtimolini prognozlaydigan bo'lsak, hozirda uchragan har

to'rt odamning biri psixoterapevt va psixologlar yordamiga muhtoj ekanligini hech kim haqli ravishda inkor etmaydi.

Ushbu o'rinda aytish mumkinki, dunyo mamlaktlari aholisi orasida ruhiy jihatdan mutlaqo sog'lom odamlarning ulushi pasayishda davom etmoqda.

Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatning turli mintaqalarida sog'lom bolalar soni boshlang'ich mакtab o'quvchilari orasida 8-10 %, o'rta yoshdagilar - 6% va kattalar - 3-5% ni tashkil qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turubdiki intellektual salohiyatli psixologik sog'lom kadrlarni harbiy sohaga nomzod sifatida o'rganish, ularni faqatgina maxsus psixologik o'rganish asosida tanlab olish va lavozimlarga tayinlash masalasi harbiy-kasbiy saralash organlari xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yukini yuklamoqda.

Barcha davlatlar Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatga nomzodlarni psixologik o'rganish va lavozimlarga tayinlash masalasiga harbiy kuch qudrat rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Nizomda harbiy-kasbiy saralash tushunchasiga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan:

harbiy-kasbiy saralash – fuqarolarni (nomzodlarni) kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga qo'yilgan talablarga mos kelishini aniqlashga qaratilgan tadbirlar kompleksi (intellektual rivojlanganlik va psixoemotsional barqarorlik darajasini psixologik o'rganish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish, jismoniy imkoniyatlarni baholash, shuningdek harbiy xizmat uchun kasbiy jihatdan muhim bo'lgan boshqa sifatlar);

Yuqoridagi tarifdan ochiqlanadiki, harbiy-kasbiy saralash – bu hrbiy kasbga nomzod shaxslarning kasbiy yaroqlilagini ehtimoliy baholash bo'lib, ma'lum bir harbiy mutaxassislikni o'zlashtirish qobiliyati, kelgusida zarur mahorat darajasiga erishish imkoniyati va harbiy-kasbiy vazifalarni samarali bajarish imkoniyatlarini psixologik va osixofiziologik o'rganishdir.

Harbiy-kasbiy saralash jarayonida nomzodlar ruhiy imkoniyatlarining muayyan harbiy xizmat sharoitlari va kasbiy xususiyatlarga muvofiqligi aniqlanadi.

Saralash jarayonida dunyoning ko'plab davlatlari armiyalarida harbiy xizmatga nomzodlarning asab-ruhiy barqarorligini tashxislash to'rt darajali baholash ko'rinishida amalga oshiriladi: yuqori, yaxshi, qoniqarli va qoniqarsiz.

Kasbiy yaroqlilikning to'rtinchchi toifasiga ega bo'lgan nomzod fuqarolar harbiy mutaxassisliklar bo'yicha o'quv bo'linmalariga, harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborilishi yoki shartnoma bo'yicha harbiy xizmatga qabul qilinishi mumkin emas.

Takidlash joizki, harbiy xizmatning muvaffaqiyati va uning sifati fuqarolarni harbiy xizmatga tanlashning samaradorligi va tanlov xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Ushbu tendensiyalar nafaqat kadrlarni lavozimlarga tanlashda, balki nomzodlarni shaxsiy xususiyatlariga kelib chiqib kasbga to'g'ri yo'naltirishga olib

keladi. Shunday qilib, harbiy xizmatga kirishda fuqarolarning kasbiy-psixologik tanlovini amalga oshirish zamonaviy jamiyatda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Rus psixolog olimlaridan harbiy-kasbiy saralash muammolari hamda kasbga yaroqlilikni belgilash borasida ko'plab, jumladan: kasbga doir muhim shaxsiy fazilatlar G.K. Akopov, V.D. Bradina, V.I. Kovalyov, mutaxassislarning kasbiy motivatsiyasi G.B. Gorskaya, V.D. Shadrikov, faoliyatni boshqarish xususiyatlari O.A. Kanopkin, A.K Osnitskiy va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan psixologik izlanishlar

va ilmiy tadqiqotlar shaxs individual psixologik xususiyatlarini ko'p aspektli tashxislashga qaratilgan.

Harbiy xizmatchilarining jangovar, nazariy-taktik hamda kasbga yaroqliliginini aniqlash muammolari bir qator rus olimlari N. F. Fedenko, M. I. Deyachenko,

A.Y. Ansupov, B.Y. Shvedina, A.Y Yelbayev), kadrlarni tanlashda vatanparvarlik tuyg'usining shakllanganlik darajasini aniqlash muammolari bo'yicha o'zbek olimlaridan E. G'oziyev, kasbga oid psixologik tadqiqotlar bo'yicha B.N Sirliyev, harbiy-kasbiy saralashda umumiy va maxsus qobiliyatlarini o'rganish hamda nomzodlar asab-ruhiy barqarorligini diagnostikalash bo'yicha harbiy psixolog va sotsiologlar

S.Y Axrorov, S. Rahimmirzayev kabi harbiy-kasbiy saralash mutaxassis olimlari kasbiy faoliyatlarini va ilmiy tadqiqotlari orqali ko'plab ijobjiy natijalarga erishganlar.

Harbiy psixologlar va mutaxassislarning professional psixologik tanlov bo'yicha amaliy faoliyatida harbiy xizmatga kirayotgan fuqarolar va harbiy xizmatchilarining neyropsik barqarorlik darajasini baholash juda muhim rol o'ynaydi. Bu ularni tananing psixofiziologik zaxiralariga maksimal darajada stressni talab qiladigan yoki ekstremal, hayot uchun xavfli sharoitlarda faoliyat bilan bog'liq bo'lgan harbiy mutaxassisliklarga taqsimlashda alohida ahamiyatga ega.

Asab-ruhiy barqarorlikning asosiy shakllari va xarakterli xususiyatlari qanday degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin bo'ladi:

Shaxsning barqaror komponenti (yadrosining) biologik konditsiyasi asab tizimining asosiy xususiyatlariga (kuch, dinamizm, harakatchanlik, labillik) va ularning hosilalari: temperament, diqqat, aql, va xarakter urg'ulariga asoslanadi. Ekstremal xarakterli xususiyatlarning rivojlanishi, shuning uchun psixofiziologik, psixologik va psixiatrik tekshiruv usullaridan foydalangan holda ushbu yadroni tahlil qilish mumkin. ARBning namoyon bo'lishi ko'p jihatdan chegaradosh shaxs ruhiy buzilishining diagnostik mezonlariga o'xshaydi:

- harakatlarning betartibligi va oldindan aytib bo'lmasligi;
- odamlar bilan munosabatlardagi beqarorlik;
- asossiz, nazorat qilib bo'lmaydigan g'azab hurujlari;
- o'z-o'zini imidjining buzilishi (o'zini past yoki yuqori baholash);
- affektiv beqarorlik, kayfiyatning o'zgaruvchanligi;
- yolg'izlikka toqat qilmaslik, yolg'iz qolmaslik;
- surunkali bo'shliq hissi, zerikish;
- o'z-o'ziga zarar etkazish tendentsiyasi, o'z joniga qasd qilishga urinishlar.

Asab-ruhiy barqarorlikning ushbu ko'rinishlari harbiy xizmatchilarda harbiy kasbiy faoliyatning noqulay sharoitlarida yuzaga chiqib xizmat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va noxush holatlarni keltirib chiqaradi. Shaxsiy xavf darajasi, vazifaning og'irligi va uni amalga oshirish uchun ajratilgan vaqt, stress ta'sirining davomiyligi va boshqa bir qator omillar dekompensatsiyaning tezligi hamda chuqurligini asab-ruhiy barqarorlikning og'irligini aniqlaydi.

Psixologik moslashuv mexanizmlarining sustligi, tashqi ta'sirlarning tabiatidan qat'i nazar, tashqi omillar tasiri organizmning suboptimal javob reaksiyasi shaklida tashqi aks ettirishni anglatadi. Bu faoliyat natijasining ijtimoiy maqbul emasligi faoliyatdan butunlay voz kechish,unga taqlid qilish, baxtsiz hodisalarining yuqori darajasi bilan namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, xorij tajribasini mukammal o'rganib borish barobarida nafaqat nomzodlarni harbiy kasbga layoqatliligi, intellekt darajasini, umumiyligi va maxsus qobiliyatlarini o'rganish, balki har bir nomzodning asab ruhiy barqarorligini mezon sifatida baholash imkonini beruvchi shaxs so'rovnomalaridan foydalanish, nomzodlar bilan suhbat (dastlabki o'rganish) jarayonida nomzodda shakllangan ruhiy barqarorlikni psixologik tashxislashga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Zero, sifatli tashkil qilingan harbiy-kasbiy saralash Qurolli Kuchlarimizning professional asosi – Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarimizning salohiyatida va ona vataniga bo'lgan sadoqatida o'z aksini topadi.

Qurolli Kuchlarimiz tarkibida harbiy libos kiygan har bir harbiy xizmatchining psixologik ruhiy jihatdan barqarorligi esa xalqimizning milliy armiyamizga bo'lgan ishonchning kafolati bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Берг Т.Н. Неврально-психическая нестабильность и методы ее выявления. – Владивосток: Мор. Государственный университет. 2005 г.

"Harbiy-kasbiy saralash jarayonida psixologik testlarni qo'llashning muammoli masalalari". Uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir U. Fattaxov. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi nashriyoti -T.: 2023 yil.

2. Анастази А., Урбина С. Психологическое тестирование. © Перевод на русский язык ЗАО Издательский дом СПб.: Питер, 2005. - 98 ст. - (Серия «Мастера психологии»).

3. Военная психология и педагогика. М., "Совершенство" 1998.

4. Muhammedova D.G., Salomova G.Sh. Psixologik tadqiqotlar ma'lumotlarini qayta ishslash metodlari va texnologiyalari. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institute bosmaxonasi.: © Toshkent, 2021 y.